

**O'QUVCHILARNING «TEXNOLOGIYA» FANIDA
HUNARMANDCHILIKKA OID MAXSUS KOMPETENSIYALARINI
RAQAMLI TA'LIM MUHITDA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

**Qodirov Baxtiyor Eshmurzaevich-Termiz davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

E-mail: b.e.qodirov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning «texnologiya» fanida hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini raqamli ta'lim muhitda rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, hunarmandchilik, texnologiya, raqamli texnologiya, metod, metodika, kompetensiya, maxsus kompetensiya, loyiha, kreativlik, o'qitish.

**PSIXOLOGO-PEDAGOGICHESKIE USLOVIYA RAZVITIYA
SPESIALNYX REMESLOVYX KOMPETENSIY STUDENTOV PO
PREDMETU «TEXNOLOGIYA» V SIFROVOY OBRAZOVATELNOY
SREDE**

**Кадыров Бактиюр Ешмурзаевич-Термизский государственный университет
дотсент, доктор философских наук по педагогическим наукам (PhD)**

E-mail:: b.e.qodirov@mail.ru.

Annotatsii: V dannoy state opisывaetsya vajnost razrabotki psixologo-pedagogicheskix usloviy dlya razvitiya spetsialnyx navykov obuchayushixsya v sfere «texnologii» v sifrovoy obrazovatelnoy srede.

Klyuchevye slova: texnologiya, remeslo, texnologiya, sifrovaya texnologiya, metod, metodologiya, kompetentnost, spetsialnaya kompetentnost, proekt, tvorchestvo, obucheniye.

**PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF
DEVELOPMENT OF SPECIAL CRAFT COMPETENCES OF STUDENTS IN
THE SUBJECT OF "TECHNOLOGY" IN A DIGITAL EDUCATIONAL
ENVIRONMENT**

**Kadyrov Bakhtiyor Eshmurzaevich-Termiz State University Associate
Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)**

E-mail: b.e.qodirov@mail.ru

Abstract: This article describes the importance of developing psychological-pedagogical conditions for the development of special skills of students in the field of "technology" in the digital educational environment.

Key words: technology, craft, technology, digital technology, method, methodology, competence, special competence, project, creativity, teaching.

Kirish. Dunyoda xalqaro pedagogik tajribalar va zamonaviy ta'lim standartlariga har tomonlama mos mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish, mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, yuksak kasbiy va intellektual, tanlagan kasbi bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Buning uchun raqamli ta'lim muhiti (RTM)ni eng so'nggi pedagogik qonuniyatlar asosida ishlab chiqib, o'quvchilarda o'ziga ishonch, fanga qiziqish, mehnatsevarlik, o'zgaralar mehnatini qadrlash, zamonaviy bilim olish, hunar egallashga bo'lgan qiziqish, mustaqil kasb tanlash, kreativlik xislatlarini rivojlantirish mamlakatimiz intellektual resurslari salohiyati ulushini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kasb-hunar egallash muhimligi, hunarmandchilikning turli sohalari va xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan. Tadqiqot muammosi sohasida vatanimiz olimlaridan I.T.Choriev, P.T.Magzumov, U.Nishonaliev, S.S.Bulatov, R.N.Ashurov, M.X.Shomirzaev, A.A.Abdurashidov, MDH davlatlari olimlaridan A.I.Vorobev, V.I.Kachnev, V.G.Razumovskiy, A.V.Yefanov, T.B.Antipova kabilar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida AKTdan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari, ta'limiy dasturlarni qo'llash nazariyasi, metodikasi va amaliyoti A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, Q.Olimov, O.A.Abduqudusov, N.I.Taylaqov, J.A.Xamidov, O.X.To'raqulov, D.N.Mamatov, F.S.To'rabekov, A.R.Jo'raev,

N.F.Talizina, xorijiy mamlakatlar olimlaridan G.Selwyn, B.Bloom, T.Dora va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. RTM va hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli yo'nalishlarda talqin qilingan. Umumta'lim maktablari o'quvchilarining ijodiy fikrlashi, mustaqilligi, faollik hamda ijodkorligining rivojlanib, dunyoqarashining kengayib borishi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Hunarmandchilik qadimdan insoniyatning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga kelib, inson tafakkuri va jamiyatning rivojlanishi bilan dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqib, turli davrlarda texnika rivojlanishi bilan takomillashib kelgan. Hunarmandchilik o'ymakorlik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik, kulollik, bo'yrachilik, tikuvchilik, to'quvchilik, binokorlik, zargarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunukasozlik va sh.k. turlarga bo'linadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, ta'lim shakllarida AKT, Internet va uning imkoniyatlari qo'llanishi nazarda tutilgan; ularni bilish va muqobil foydalanish esa o'z navbatida RTMga tayyorlash, o'quvchilarning fanga oid maxsus kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Tadqiqot ishida hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalar mazmuni Blum taksonomiyasi komponentlari (bilish, tushunish, qo'llash, analiz, sintez, xulosa) asosida ochib berilgan.

«Texnologiya» fani o'qituvchilari darslarni tashkil etishda o'quv axborotlarining o'quvchilar ehtiyojlari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda qiziqтира oladigan, mustaqil fikrlash, noan'anaviy yondashish, qaror qabul qilish, hunarmandchilikka va tadbirkorlikka oid maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

«Texnologiya» fani o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: darslarni tashkil etishda AKT va turli shakl, metod, vositalardan samarali, maqsadli foydalanish; ta'lim berish jarayonida RTMni yaratish; o'quv topshiriqlarini bajarishda o'quvchilarga usullarni mustaqil, ixtiyoriy tanlash imkonini

berish; o'quvchiga individual, juftliklarda, kichik guruhlarda va jamoada ishlay olishi uchun imkoniyat yaratish; mashg'ulotlarning to'g'ri va aniq loyihalashtirish ta'lim sifati va dars samaradorligini oshishiga zamin yaratadi.

Umumta'lim maktablarida «Texnologiya» fanini o'rganish jarayonida o'quvchilarda hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili, shuningdek, amaliy ish tajribalar natijalari bu borada quyidagilar alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi: TTMda o'quvchilarda hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish; o'quvchilarda hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda RTMni yarata olish darajasini aniqlash hamda uni takomillashtirish; hunarmandchilikka oid RTMni yaratish; RTMda o'quvchilarda hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

O'quvchilarning hunarmandchilikka oid egallashlari lozim bo'lgan kompetensiyalari: hunarmandchilik va ularning turlari to'g'risida kognitiv, affektiv va psixotor ma'lumotlarga ega bo'lishi hamda amaliyotda qo'llay olishi; yog'och o'ymakorligi amallarini bajara olish va ularning turlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida badiiy manzarali ko'rinishga keltira olish; iste'mol buyumlari (tovoq, lagan, qoshiq), qurilish buyumlari (ustun, yopiq, rom), mehnat buyumlari (beshik, sandik, javon)ni yasay olish; turli hunarmandchilik tarmoqlari (bo'yrachilik, savat to'qish, zargarlik, temirchilik, kulollik, pichoqchilik va boshqalar) ularning ish metodlari, o'ziga xos xususiyatlarini amaliyotga tatbiq etish va sh.k.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalarining tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini RTMda rivojlantirishga qaratilgan "Technology crafts" Web-sayti jarayonining (RTMni yaratish, ta'lim platformasini tashkil etish, ma'lumotlar bazasini

yaratish, audio va video materiallar, adabiyotlar bazasini yaratish va o'quvchilar bilimni nazorat qilish) funksiyalari va imkoniyatlari asoslandi.

2. O'quvchilar uchun RTMni yaratish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik-psixologik (motivatsion, kognitiv, amaliy, faoliyatli, kreativ) omillar o'rganilib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan didaktik imkoniyatlari "Technology crafts" Web-saytini yaratish orqali takomillashtirilgan.

3. O'quvchilarning hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini RTMda rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari dars, sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida texnik-texnologik ish ob'ektini bajarish, mustaqil fikrlash, hunarmandchilikka oid atamalarni bilish, ijodiy ish bilan shug'ullanishni rivojlantirish bosqichlari hamda an'anaviy ta'lim va RTMning qiyosiy tahlili asosida ochib berildi.

Yuqorida keltirib o'tilgan xulosalarni inobatga olib, umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradigan pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish tavsiya berishga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Blum B. The development of an Integrated Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Yeducation 1981, vol.3,–R. <https://doi.org/10.12691/yeducation4-3-3>

2. Kadirov B.E. "Development of basic competencies of students in crafts in technology lessons" // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part I ISSN 2056–5852.

3. Qodirov B.E. Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Dis. ...p.f.f.d.(PhD) – Termiz. 2021.-148 b.

4. Mukumova F.X. O'quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari: PhD dok.dic. –Termiz, 2021. – 129 b.

5. Paxpatdinova.P.O. O'quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik faoliyatini loyihalashtirish texnologiyasi. Monogpafiya. – T.: Lesson Press, 2022. – 167 b.
6. Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Diss. ... ped. fan. dok. – T., 2012. –307 b.

